



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKLTLARI

FAOLIYATINI BOSHQARISH STRATEGIYASINI

RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professor

Ochilova Feruza Mirmaxmudovna

O'zbektelekom" AK " Telekommunikasiya va personalni rivojlanirish markazi"

Xodimi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, tinglevchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahondagi rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning yalpi ichki mahsulot va eksportdagi ulushi yoritilgan. Tadbirkorlik tushunchasining tarixiy rivojlanishi, klassik va zamonaviy iqtisodchilar fikrida uning mohiyati tahlil qilingan. Ayniqsa, tadbirkorning iste'molchilar bilan ishlashdagi vazifalari, mahsulot sifati va marketing ahamiyati muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Tadbirkorlikning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi faol sub'ekt sifatidagi roli va iste'molchi bilan o'zaro aloqasi alohida bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Investitsion kreditlar, tijorat banklari, bank tizimi, iqtisodiy o'sish, moliyalashtirish, depozitlar, bankfaoliyati, uzoq muddatli kreditlar.

Annotation: This article discusses the role of small business and private entrepreneurship in the economies of developed countries, highlighting their contribution to GDP and exports. It analyzes the historical evolution of the concept of entrepreneurship and presents the views of classical and modern economists. Particular attention is paid to the entrepreneur's responsibility in meeting consumer needs, product quality, and the importance of marketing. The entrepreneur's function as an active agent in social production and the critical interaction with consumers are emphasized.

Keywords: Investment credits, commercial banks, banking system, economic growth, financing, deposits, banking activity, long-term loans.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy siyosatning strategik vazifasi sifatida jadal sur'atlarda rivojlanirilmoqda. «Jahondagi rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 55-67 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQShda 52-55 foizni, Yaponiyada 52-57 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 63-67 foizni tashkil etadi. Yearbiy Yevropa mamlakatlarida xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan 17,1 mln. korxonaning 90,9 foizi kichik biznes korxonalari hisoblanadi. J.B.Seyning fikricha, tadbirkor olgai daromad uning mehnati, ishlab chiqarishni tashkil etganligi, mahsulotni o'z vaqtida sotganligi uchun berilgan mukofotdir. Qayd etish lozimki, iqtisodiyot fanining



asoschilari tadbirkorlik shakliga kam e'tibor bergenlar. Tadbirkorlik faoliyati ularning ilmiy - tadqiqot ishlarining tahlil ob'ekti bo'lмаган. Ingliz iqtisodchi olimlari A.Smit va D.Rikardo iqtisodiyotni o'z-o'zini muvofiklashtiruvchi mexanizm deb kabul qilganlar. «Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish» kitobida A.Smit tadbirkor ta'rifiga alohida e'tibor bergen edi.

A.Smitning fikricha, tadbirkor - kapital egasi. U muayyan tijorat g'oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir. Tadbirkorlikdan olingan daromad, A.Smitning fikricha, shaxsiy tavakkalchilik uchun olingan mukofotdir.

XIX-XX asr chsgaralarida tadbirkorlik institutining ahamiyati va rolini ko'pchilik anglay boshladи. Fransuz iqtisodchisi Andre Marshall birinchi bo'lib ishlab chiqarishning uchta omilga (er, kapital, mehnat) to'rtinchi - tashkillashtirish omilini qo'shdi. Shu vaqtan boshlab, tadbirkorlik tushunchasi va shu sohada olib boriladigan ishlar ko'lami kengayib bormoqda.

Amerikalik iqtisodchi J.B.Klark, J.B.Seyiing «uchlik formulasiga» bir oz o'zgartirish kiritdi. U pint fikricha, ishlab chiqarishda doim to'rt omil ishtirok etadi: kapital, ishlab chiqarish vositalari va yer, tadbirkorlik faoliyati, ishchining mehnati.

Ularning xissasiga umumiyo sanoat xajmining 50 foizi, xizmatlar sohasining 67 foizi, qurilish va savdoning deyarli 90 foizi to'g'ri kelmoqda. Biroq jahondagi rivojlangan mamlakatlar eksportining qariyb 30-40 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich AQShda 30 foizni, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 27 foizni, Yaponiyada 15 foizni tashkil etadi⁵³. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksport salohiyatini yanada oshirish ustuvor ahamiyatini saqlab qolmoqda. Na xorijda, na bizda hali tadbirkorlikning umum tomonidan e'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Amerikalik olim R. Xizrich, «Tadbirkorlik o'z qiymatiga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqt va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o'ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug'idan qanoatlanuvchi shaxs»⁵⁴, - deb ta'kidlaydi.

Shundan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning ikki usulini keltirish mumkin:

iste'molchi manfaatini aniqlash usuli;

iste'molchiga yangi tovar yoki xizmatlarni «majburan qabul qildirish» usuli.

Shunday qilib, tadbirkorning asosiy maqsadi o'z iste'molchilariga ega bo'lish yo'lida tovarga ehtiyojni aniqlashdan iboratdir. Tadbirkor o'z iste'molchilarini shakllantirishda quyidagi asosiy omillarni hisobga olishi kerak:

tovarning yangiligi va uning xaridor manfaatiga mos kelishi;

tovar yoki xizmatlarning sifati;

⁵³ https://ec.europa.eu/growth/smes/sme-definition_en

⁵⁴ Хизрич Р., Питерс С. Предпринимательство. -М., 1991, 20-бет.





tovar yoki xizmatlarning narxi;
tovarning univrsallik darajasi;
tovarning tashqi ko‘rinishi, uning xaridor talabiga mosligi;
sotuvdan keyingi servis xizmatlaridan foydalanish imkonyyati;
tovarning qabul qilingan umumiy yoki davlat standartlariga mosligi;
tovarlar va xizmatlar reklamasiing jozibaliligi, xaridor diqqatini o‘ziga jalg‘etishi va hokazo.

Xulosa shundan iboratki, agar ijtimoiy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tadbirkor faol sub’ekt rolida bo‘lsa, unda tadbirkorlik jarayonining o‘zi, uning samaradorligi va mazmuni nuqtai nazaridan iste’molchi faol rol o‘ynaydi va tadbirkor bu omilni inkor eta olmaydi.

REFERENCES

1. Suyunova D.D. Raqamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>.2025, fevral.
2. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>.2025, fevral.
3. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198_b03034_ea1_b82d7241321.acec8.pdf,index.true.2024, noyabr.
4. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO‘K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>.2024, iyul.
5. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/3825/3055>.2023, sentyabr.
6. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>.2025, fevral.
7. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>.2025, fevral.



8. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198_b03034_ea1_b82d7241321.acec8.pdf,index.true.2024, noyabr.

9. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnolgiyalardan foydalаниш масаласига ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO'K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>.2024, iyul.

10. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/3825/3055>.2023, sentyabr.

11. Суюнова Д.Д. Ракамли иктисодиёт тизими иктисодиётни ривожланишининг электрон механизми. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>.2025, февраль.

12. Суюнова Д.Д. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Экономика и социум" №11(126). https://www.iupr.ru/.files/.ugd/b06fdc_5772198_b03034_ea1_b82d7241321.acec8.pdf,index.true.2024, ноябрь.

13. Суюнова Д.Д. Корпоратив бошқарувнинг самарадорлигини оширишда рақамли технолгиялардан фойдаланиш масаласига ilmiy қарашлар. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил. 7-сон, UO'K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>.2024, июл.

14. Суюнова Д.Д. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/3825/3055>.2023, сентябрь.

